Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
FILOLOGIYA

NEMIS MAQOL VA MATALLARINING O'RGANILGANLIK DARAJASI: TARIXIY VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLIL

Shoira Xamidovna Nuritdinova*
FDU, mustaqil tadqiqotchi
✉ shoiranuritdinova1961@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nemis xalq maqol va matallarining (Sprichwörter und Redensarten) o'rganilish tarixi hamda paremiologiya fanining shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIX asrdan boshlab Germaniyada maqollarni yig'ish, tasniflash va ilmiy tadqiq etish an'analari yoritiladi. Ayniqsa, Yakob Grimm tomonidan boshlangan ilmiy izlanishlar hamda keyinchalik Karl Fridrix Vilgelm Wander va zamonaviy paremiolog olimlarning ishlari nemis paremiologiyasining rivojlanishida muhim bosqich bo'lgani ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari nemis maqollarining nafaqat til hodisasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va milliy mentalitetini aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar

nemis maqollari, paremiologiya, paremiografiya, kognitiv, qadriyat, lingvokulturologiya, xalq og'zaki ijodi, madaniyat, maqol, matal.

DOI: 10.5281/zenodo.21743316

Kirish. Maqollar va matallar har bir xalqning ko'p asrlik tajribasi, dunyoqarashi hamda ma'naviy qadriyatlarini mujassamlashtirgan folklor janridir. Nemis xalq maqollari ham xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy hayoti va milliy mentalitetini aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Shu sababli ularni o'rganish tilshunoslik, folklorshunoslik, madaniyatshunoslik hamda lingvokulturologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi [1.41].

Paremiologiya fanida maqollar xalq donoligining eng ixcham va mazmunli ifodasi sifatida talqin qilinadi. Sh. Arora maqollarni „qadimiy madaniyat ovozi" deb baholab, ular avlodlar tajribasini saqlovchi universal madaniy kod vazifasini bajarishini ta'kidlaydi [2.38]. Nemis tilida mavjud boy paremiologik fond esa milliy qadriyatlar va madaniy stereotiplarni tadqiq etish uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:tarixiy-qiyosiy metod;tavsifiy (deskriptiv) metod;paremiologik tahlil; lingvokulturologik tahlil;bibliografik va tarixiy manbalarni qiyosiy o'rganish; Mazkur metodlar nemis paremiologiyasining shakllanish bosqichlarini aniqlash, ilmiy maktablar rivojini baholash hamda maqollarni lingvokulturologik nuqtai nazardan izohlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari Germaniyada maqollarni ilmiy o'rganish an'analari XIX asr boshlarida shakllanganligini ko'rsatdi. Milliy uyg'onish davri nemis xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishning ortishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, Yakob Grimm tomonidan 1816-yilda chop etilgan „Von der Poesie im Recht" asari nemis paremiologiyasi tarixidagi muhim bosqich hisoblanadi [3.25-99]. Olim qadimgi friz qonunlarida uchraydigan maqollarni ilmiy tahlil qilib, ularning huquqiy va madaniy ahamiyatini ochib berdi.

Rolf Bremmerning tadqiqotlari Grimm boshlab bergan ilmiy an'ana keyingi davrlarda yanada rivojlanganini ko'rsatadi [4.510]. XIX asr davomida Germaniyada maqollarni yig'ish va tizimlashtirish ommaviy ilmiy harakatga aylandi. Hududiy dialektlar va xalq og'zaki ijodi namunalarini yig'ishga katta e'tibor berildi.

Nemis paremiografiyasining eng yirik yodgorliklaridan biri Karl Friedrix Vilgelm Wander tomonidan

yaratilgan besh jildlik „Deutsches Sprichwörter-Lexikon“ hisoblanadi [5.4.B]. Mazkur lug‘atda 250 mingdan ortiq nemis maqol va matallari jamlangan bo‘lib, bugungi kunda ham paremiologiya bo‘yicha eng muhim ilmiy manbalardan biri sifatida foydalaniladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab maqollarni o‘rganishda yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Paremiologiya faqat folklor emas, balki semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya bilan uzviy bog‘liq fan sifatida rivojlana boshladi. Wolfgang Mieder maqollarni „xalq donoligining ixcham modeli“ sifatida tavsiflab, ularning kommunikativ va madaniy funksiyalarini chuqur tahlil qilgan [6.41].Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda maqollar korpus lingvistikasi asosida statistik usullar yordamida ham o‘rganilmoqda. Peter Grzybek maqollar chastotasi va paremiologik minimumni aniqlash masalalarini ilmiy asoslab berdi [7.68]. Natijada maqollarni zamonaviy til korpuslari orqali tadqiq etish imkoniyatlari kengaydi.

Bugungi kunda nemis paremiologiyasi folklorshunoslik, etnolingvistika, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya kesishgan nuqtada rivojlanayotgan kompleks ilmiy yo‘nalishga aylandi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Germaniyada maqollarni ilmiy o‘rganish XIX asr boshlarida Yakob Grimm faoliyati bilan boshlangan va keyinchalik Karl Friedrix Vilgelm Wander tomonidan tizimli paremiografik lug‘atlar yaratilishi bilan yangi bosqichga ko‘tarilgan. XX–XXI asrlarda esa paremiologiya semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya bilan uyg‘un holda rivojlanmoqda.

Nemis xalq maqollari xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va milliy tafakkurini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik birlik bo‘lib, ularni kompleks o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari nemis paremiologiyasi tarixini tizimli yoritishga hamda oilaviy qadriyatlarni aks ettiruvchi paremalarni keyingi lingvokulturologik tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A Handbook.* Westport, CT: Greenwood Press.P-41.
2. Arora, S. L. (1984). *The Perception of Proverbiality*. Proverbium, 1, 1–38.
3. Grimm, J. (1816). Von der Poesie im Recht. Zeitschrift für geschichtliche Rechtswissenschaft, Bd. 2, Heft 1, S. 25–99.
4. Bremmer, R. H. Jr., Laker, S., & Vries, O. (Eds.). *Advances in Old Frisian Philology*. Amsterdam–New York: Rodopi, 2007. — 510.
5. Wander, K. F. W. *Deutsches Sprichwörter-Lexikon. Ein Hausschatz für das deutsche Volk.* In 5 Bänden. Leipzig: F. A. Brockhaus, 1867–1880.
6. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A Handbook.* Westport, CT: Greenwood Press.P-41.
7. Grzybek, P. (2014). *Foundations of Semiotic Paremiology*. Berlin: De Gruyter,68.
8. Mieder, W. (1993). *Proverbial Wisdom: Theories of Proverbs*. New York: Garland Publ